

«TAHDID» TUSHUNCHASI, UNING SHAKLLARI VA GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY DAVLAT SUVERENITETIDA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATI

Hamroyev Sanjar Samiyevich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tel : +998934615155, e-mail : www.s.hamroyev28@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7775-8483

Annotatsiya. Mazkur maqolada «tahdid» tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllari hamda uning globallashuv sharoitida milliy davlatlar suverenitetida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Bunda globallashuv jarayonining ijobiy taraflari e’tirof etilgan holda, uning tahdid sifatida milliy davlatlar suverenitetiga ta’siri siyosiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tahdid, globallashuv, ichki va tashqi tahdid, azaliy va o‘tkinchi tahdid, uzoq va yaqin tahdid, mintaqaviy va umumbashariy tahdid, suverenitet.

Globallashuv insoniyat, davlatchilik taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib berishi barobarida tahdid sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Chunki globallashuv nafaqat mamlakatlar taraqqiyotiga, balki milliy davlatlar suverenitetiga, xavfsizligiga, millatlar mavjudligiga ham dahl qilmoqda. Bunday xulosaga kelishimizga sabab: **birinchidan**, bugungi unda jahonning taraqqiy qilgan davlatlari o‘z manfaatlarini yo‘lida globallashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanishmoqda; **ikkinchidan**, globallashuv kam taraqqiy qilgan milliy davlatlarning, avvalo, iqtisodi, so‘ng bu orqali siyosati, madaniyati hamda ma’naviyatiga ta’sir qilmoqda; **uchinchidan**, globallashuv davlat hokimiyati «vakolatlari»ni turli transmilliy korporatsiyalar, ulkan moliyaviy tashkilotlar, nodavlat notijorat tuzilmalar ixtiyoriga «taqdim qilmoqda»ki, natijada insoniyat hamjamiyatida siyosiy tashkilot sifatida davlatchilikning «obro‘si»ga putur yetib, uning asoslarini zaiflashishiga xizmat qilmoqda; **to‘rtinchidan**, globallashuv manfaatlarining «milliylashuv»iga, muammolarning esa «umumiylashuv»iga olib kelmoqda. Bu esa shundoq ham muammolari yetarlicha bo‘lgan milliy davlatlar rivojiga salbiy ta’sir etmoqda. Shunday ekan, globallashuvning milliy davlatlar suverenitetiga tahdid sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilish, ularni aniqlash va bartaraf etish

choralarini ko‘rish davlat qatori, millatning ham mavjudligi kafolati bo‘lib qolmoqda.

«Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati»da tahdid tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: «Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli; muayyan beqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyat»[1;308]. Ushbu ta‘rifni inkor etmagan holda aytish mumkinki, tahdidning ob‘ekti nafaqat inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyati, balki tabiat ham bo‘lishi mumkinligi e‘tiborga olinmagan. Chunki tabiatga nisbatan insoniyatning ba‘zi nooqilona xatti-harakatlari tajovuz sifatida, avvalo insoniyatning o‘ziga nisbatan tahdidi deb qaralsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yana bir manbada esa tahdidga yuqoridagiga o‘xshagan ta‘rif kengaytirib tushuntiriladi. Unga muvofiq: «Tahdid – bu insonning hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiradigan hamda muayyan tarixiy davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy tuzilmaning, to‘g‘rirog‘i, davlatning siyosiy asosi zaiflashtirilishi, yemirilishiga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning «tajovuz»i tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan beqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatdir»[2;71]. Ta‘rifda keltirilganidek, tahdid avvalo insonga, so‘ngra u orqali jamiyat va davlatga turli yo‘llar bilan shakllantiriladigan beqaror holat.

Yurtimiz olimlaridan siyosiy fanlar doktori, professor Sh.Paxrutdinov yuqorida bildirilgan fikrlarni to‘ldirgan holda «tahdid» tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beradi: «tahdid aslida inson va jamiyat hayotiy faoliyati, umuman, yashashni qiyinlashtiruvchi, uning barqarorligi, taraqqiyoti va xavfsizligini yo‘qqa chiqarish mumkin bo‘lgan, to‘g‘rirog‘i, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish va izdan chiqarishga qaratilgan, makon va zamon nuqtayi nazaridan aniq chegaraga ega bo‘lgan o‘ta salbiy funksional xarakterli hodisadir»[3;11]. Falsafa fanlari doktori, professor S.Otamuratov esa «tahdid» tushunchasiga chuqur falsafiy mushohada orqali uni omil, kuch, nazariy jarayon sifatidagi talqinini bayon qiladi. Unga muvofiq, «qachonki tahdid moddiylik asosida, ya‘ni qurol yoki boshqa vosita ko‘rinishida yuzaga keladigan bo‘lsa, kuch darajasida namoyon bo‘ladi. Ma‘naviyat, g‘oya va mafkuralar ko‘rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashadigan bo‘lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jarayon sifatidagi jihati hisoblanadi. Omil esa kuchning manbai bo‘lgani uchun hodisa va jarayonlarni harakatga keltiradi» [4;259-263].

Bugungi kun hodisalari shundan dalolat beradiki har qadamda, har qachongidan ko‘ra ko‘proq tahdidning ko‘lami, yo‘nalishlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, insonlar qalbi va ongini egallashga qaratilgan tahdidlar butun davlatchilikni, millatning kelajagini xafv ostiga qo‘ymoqda. Shunday ekan, tahdidning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarni, yo‘nalishlarini, ko‘lamini o‘z vaqtida anglash va kerakli profilaktik choralarni ko‘rib qo‘yish har bir davlat, xalq, millat va alohida shaxs uchun kun tartibidagi asosiy masala bo‘lishi lozimligi ayon bo‘lmoqda. Shunday ekan tahdidning quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: **birinchidan**, tahdid har qanday makon va zamonda mavjud bo‘lgan ob‘ektiv reallikdir. Ya‘ni insoniyat yashagan «oltin davr»lar ham, yoki Buyuk imperiyalar joylashgan hududlar ham tahdidlardan bir zum bo‘lsada holi bo‘lmagan. Hozirgi davr va istiqbolda ham bundan mosuvo bo‘lmaydi; **ikkinchidan**, tahdidlar va ularni yuzaga keltiruvchi vositalarning o‘zgaruvchan mohiyatga ega ekanligi. Ma‘lumki borliq va uning atributlari o‘zgarish, rivojlanish xarakteriga ega. Ayniqsa, fan, texnika va texnologiya sohasidagi misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar boshqa sohalar qatori tahdid va uning vositalarining zamonaviy, noan‘anaviy, yangi qiyofada namoyon bo‘lishiga olib kelmoqda. Jumladan, bir vaqtlar asosan qurol kuchi yordamida tahdidlar amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot, yoki turli iqtisodiy «richag»lar orqali tahdid qilish samarali vositaga aylandi; **uchinchidan**, tahdidlar jamiyatning barcha sohalarida aks etadi. Ya‘ni iqtisodiy tomondan bo‘ladimi, yohud ma‘naviy tomondanmi jamiyatning turli sohalarida doimiy tahdid qurshovida bo‘lib, ularning hech birini bundan to‘la himoyalangan deb aytolmaymiz; **to‘rtinchidan**, har qanday tahdidning ob‘ekti va sub‘ekti inson va tabiat ekanligi. Ya‘ni tahdidlarning «ijodkori» asosan inson, uni qabul qiluvchisi ham avvalo uning o‘zi va tabiatidir.

Yuqoridagi mulohazalardan ma‘lum bo‘ladiki globallashuv nafaqat milliy davlat suverenitetini mustahkamlashi, balki unga nisbatan tahdid sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Shunday ekan tahdidlarni ham muayyan mezonlarga ko‘ra tasniflash talab etiladi. Yurtimiz olimlari (S.Otamuratov, Sh.Paxrutdinov, Sh.G‘oyibnazarov va b.) tomondan e‘lon qilingan bir qator ilmiy tadqiqotlar asosida hamda o‘zimizning kuzatuvlarimizni ham inobatga olgan holatda tahdidlarni quyidagicha klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq (1-rasmga qarang):



1-rasm. Tahdidlar va ularning turlari

Tahdidlarni bunday tavsiflashimizni quyidagicha asoslaymiz:

Birinchidan, paydo bo'lish manbaiga ko'ra tahdidlarni ichki va tashqi turlarga bo'lishimizga sabab, tahdidlar muayyan sub'ekt (davlat, jamiyat yoki boshqa shu kabi tuzilma) ichida ham, yoki undan tashqarida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, muayyan davlat uchun uning hududida paydo bo'lgan va bevosita uning barqarorligiga, xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar ichki tahdid sifatida baholanadi. Agar muayyan tashqi omillar natijasida biror davlat xavfsizligiga, barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holat bo'lsa tashqi tahdid sifatida baholash maqsadga muvofiqdir;

Ikkinchidan, anglanganlik darajasiga ko'ra tahdidlarni ma'lum va noma'lum, ko'rinar va ko'rinmas tahdidlarga ajratishimizga sabab, tahdidlarni inson ongining nechog'li payqay olishi nazarda tutilgan. Unga muvofiq ma'lum, yoki ko'rinar tahdidlarni muayyan belgilariga ko'ra o'z vaqtida payqash, anglab olish, bilish mumkin. Biroq noma'lum, ko'rinmas tahdidlarni yuzaga chiqishini o'z vaqtida ilg'ab olish qiyin. Bunga sabab esa ushbu tahdidlarning belgilari yashirin, yoki ularni darhol bilib bo'lmaydi. Ularning mavjudligini faqat vaqt o'tgani sayin bilish, anglash mumkin bo'ladi;

Uchinchidan, sodir bo'lish vaqti va o'rniga ko'ra tahdidlarni uzoq va yaqin tahdidlarga bo'lishimizga sabab, ularning muayyan davr va hudud bilan aloqadorligidadir. Bu borada XX asrning zabardast faylasufi Karl Yaspers «Tarixning ma'no va intihosi» kitobida har bir «davr – o'ziga xos tahdid» degan fikrni ilgari surgan[5;67]. Uning fikricha, insoniyat tarixi faqat bir yo'l – davrlar orqaligina kechadi. Va har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uni

aniq tasavvur etish va bu jarayondagi turli muammolarning yechimini topishga bo'lgan intilish esa davr tahdidiga berilgan javob hisoblanadi. Vaqt mezoniga ko'ra shunday tahdidlar borki o'tmishda paydo bo'lganiga qaramay, ularning ta'siri bugun emas kelajakda bilinishi mumkin, yana shundaylari borki biz ularni bugun, yoki yaqin kelajakda sezamiz. Masalan, o'z vaqtida yaxshi e'tibor qaratilmagan muayyan soha kelajakda tahdid sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Yoki oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik qachonki u ulg'aygach oqibati bilinadi. Hududiy jihatdan esa tahdidning ob'ektga nisbatan masofasi nazarda tutiladi. Misol uchun Afg'onistondagi notinch vaziyat, avvalo, uning yon qo'shnilariga yaqin tahdid sifatida qaralsa, boshqa mintaqalardagi davlatlarga nisbatan uzoqdagi tahdid hisoblanadi;

To'rtinchidan, geosiyosiy jihatlariga ko'ra tahdidlarni mahalliy, hududiy, mintaqaviy, umumbashariy tahdidlarga bo'linishiga sabab, qamroviga muvofiq tahdid yuzaga keladigan makonning jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatidir. Masalan, muayyan mamlakat tarkibidagi sub'ektda (viloyat, tuman, mahalla va boshqa shu kabilarda) yuzaga kelgan norozilik kayfiyati mahalliy tahdid hisoblanadi. Chunki, ushbu tahdid faqat shu sub'ektda yashovchi aholiga, yoki mahalliy boshqaruvga nisbatan xavf tug'dirishi mumkin va uning ta'siri boshqa sub'ektlar uchun kam ahamiyatli bo'lib, odatda shu hududdan tashqariga sezilmaydi. Agar tahdid butun mamlakat aholisi va davlat boshqaruvi miqyosida bo'lsa, bu hududiy tahdid sifatida baholanib, uning ta'siri mamlakat hududidan tashqariga chiqmaydi. Masalan, ish tashlashlar, norozilik namoyishlari, korrupsiya kabilar odatda bitta hududga xavf soladi. Bordiyu tahdidlar muayyan mamlakat hududidan tashqariga chiqib unga yondosh davlatlarni ham qamrab olsa, unda mintaqaviy tahdidga aylanadi. Masalan, Isroil-Falastin mojarolari, Iroq, Suriya kabi davlatlardagi xavfsizlik tizimining izdan chiqishi Yaqin Sharq mintaqasidagi tahdidli holat hisoblanadi. Agar tahdidlar muayyan mintaqadagi davlatlardan tashqari butun yer yuzini qamrab oladigan bo'lsa, unda umumbashariy tahdid sifatida baholanadi. Masalan, terrorism xavfi global miqyosdagi tahdiddir;

Beshinchidan, jamiyat sohalariga ko'ra tahdidlarni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, mafkuraviy kabi turlarga ajratamiz. Ma'lumki, jamiyat bir qator sohalariga bo'lib o'rganiladi, bu uni anglashni, to'g'ri faoliyat olib borishini yanada qulaylashishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham tahdidlar qaysi sohada yuzaga kelmasin uning ta'siri «zanjir reaksiyasi» kabi boshqa tarmoqlarda ham o'z «aks sadosi»ni beradi. Masalan, muayyan davlatda boshlangan inflyatsiya (pulning qadrsizlanishi) iqtisodiy tahdid ko'rinishidan bora-bora ijtimoiy mohiyatga ko'chadi, ya'ni aholining yashash sharoitiga salbiy ta'sir qila boshlaydi. Natijada

ijtimoiy muammo siyosiy tusga aylanish ehtimoli ortadi. Yoki ishsizlik, axloqsizlik kabi jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy hayotiga tahdidlar vaqt o'tgani sayin siyosiy va iqtisodiy qiyofa kasb etadi;

Oltinchidan, ta'sir o'tkazish usuliga ko'ra tahdidlar bevosita va bilvosita bo'lib, bunda sub'ektga ta'sir qilishning vositaviy imkoniyati nazarda tutiladi. Agar to'g'ridan to'g'ri inson, jamiyat yoki davlat hayotiga tahdid bo'lsa bevosita, bordiyu biror-bir vosita orqali ta'sir o'tkazilsa bilvosita tahdid sifatida baholanadi. Masalan, korrupsiya davlat va jamiyat faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham u taraqqiyotga tahdid hisoblanadi. «Ommaviy ma'naviyat» singari g'oyalar orqali milliy davlatlar hayotiga, suverenitetiga dahl qilish esa bilvosita xarakterga ega;

Yettinchidan, obyektiga ko'ra tahdidlar inson, jamiyat, davlat va tabiatga nisbatan tahdidlarga bo'linadi. Ma'lumki, bugungi globallashuv sharoitida turli g'oya hamda mafkuralarning kurashi avj olmoqda. Ularning asosida inson ongi va qalbini egallashga qaratilgan fikrlar mujassamdir. Bunga sabab esa, muayyan jamiyat, yoki davlat boylıklariga ko'z tikkan kuchlar, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish texnologiyalarini ishlab chiqadi va shu orqali o'z maqsadlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari insoniyatning o'z shaxsiy manfaati uchun tabiatga nisbatan turli tahdidlarni yuzaga keltirayotgani turli ekologik xavflarga, talofatlarga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan tahdidlarning ob'ekti sifatida inson, jamiyat, davlat va tabiat hisoblanadi;

Sakkizinchidan, davomiyligiga ko'ra tahdidlarni azaliy (yoki doimiy) va o'tkinchi tahdidlarga ajratishimiz mumkin. Azaliy tahdidlar uzoq o'tmishdan, ya'ni tabiat, insoniyat, davlatchilik, umuman borlik yaralgan davrdan buyon bugungi kungacha yashab kelayotgan bo'lib, kelajakda ham davom etish ehtimoli yuqoridir. Masalan, tabiiy ofatlar, ichimlik suvi yetishmasligi, o'lim kabi muammolar hamisha inson, jamiyat, davlat va tabiatga u yoki bu jihatdan tahdid bo'lib kelgan. O'tkinchi tahdidlar esa muayyan davrgagina xos bo'lib, ma'lum vaqtda paydo bo'lib, yechimini topgach unutilib yuboriladi. Bunga misol sifatida ishsizlik, ba'zi bir kasalliklarni keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda yana bugungi globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan demografik, kiber makonda yuzaga kelayotgan tahdidlar ham mavjud bo'lib, ularni biz alohida zamonaviy, yoki post-modernizm davriga xos tahdidlar sifatida talqin qilamiz. Bunga sabab fan, texnika va texnologiya sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlar va globallashuv jarayonlarining yanada shiddatlashishi muayyan muammolarga yechim topib, ayni vaqtda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Misol uchun, inson DNKsi o'rganilishi,

vaksinatsiyalash usulining kashf qilinishi turli kasalliklarning bartaraf etilishiga va inson umr ko'rish davomiyligini oshishiga, salomatligini mustahkamlanishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan bu o'sish «demografik portlash»ga sabab bo'lishi mumkinligi tabiat va jamiyat uchun tahdidli holatdir. Bundan tashqari butun jahon o'rgimchak to'ri, ya'ni internet orqali shakllantirilgan kiber makondagi tahdidlar davlat xavfsizligi tizimining yangi jihatlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashuvning jamiyat sohalariga o'tkazayotgan ta'sirini ham ijobiy, ham salbiy jihatdan talqin qilish mumkin. «Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan va yutuqlarning tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda»[6;112]. Albatta bu yutuqlar globallashuv taqdim etgan imkoniyatlar negizida shakllangan. Lekin masalaning ikkinchi tomoniga e'tibor berilsa **globallashuvning kuchi undan samarali foydalana olganlar uchungina ijobiy ahamiyat kasb etmoqda**. Bundan globallashuv markazlari sifatida yuksak taraqqiy qilgan davlatlarga ko'proq o'z manfaatlari yo'lida unumli foydalanishga harakat qilmoqdalar. Endi rivojlanish yo'liga kirgan, kam taraqqiy qilgan, kambag'al davlatlar esa globallashuv shiddatiga «bardosh» berolmayapti. Chunki uchinchi dunyo davlatlari sifatida e'tirof etiladigan ushbu mamlakatlarning ilm-fan, texnika va texnologiya sohasidagi qoloqligi hamda korrupsiya kabi illatlarning ildiz otganligi ular taraqqiyotining kushandasi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'afur G'ulom, 2013. – B.308.
2. Paxrutdinov Sh.I., Jo'raev T.A. va boshqalar. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Ogohlik va hushyorlik tamoyillari. T.: G'afur G'ulom, 2008. – B.71.
3. Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch. – T.: Akademiya, 2001. – B.11.
4. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik (siyosiy-falsafiy tahlil). Ikkinchi nashr. T.: O'zbekiston, 2013. – B.259-263.
5. Paxrutdinov Sh.I. va boshqalar. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Ogohlik va hushyorlik tamoyillari. T.: G'afur G'ulom, 2008. – B.67.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2011. – B.112.